

## ARXIV HUJJATLARINING AHAMIYATI

**Asadova Olimaxon Husen qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti  
Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada arxiv hujjatlarning ahamiyati ya’ni arxivlarda hujjatlarning qanday saqlanayotganligi va tadqiqotchilar uchun qanday imkoniyatlar qilinayotganligini to‘g‘risida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** arxiv, hujjat, manba, arxiv fondi, indeks, O‘zbekiston Milliy arxivi.

Hozirgi kunimizgacha saqlanib kelinayotgan O‘zbekiston xalqining o‘tmishi uchun qimmatli va noyob hujjatlarni asl va sifatli tarzda kelajak avlodga yetkazish, bugungi kun uchun dolzarb hisoblanadi. Ajodolarimiz tomonidan hozirgi kunga qadar saqlanib kelgan hujjatlarni butligicha saqlovchi texnika va texnologiya bo‘lmasada asl holicha saqlanganligining o‘zi eng katta yutuqligini bildiradi.

Maqsad arxivlarda hujjatlarning qanday saqlanayotganligi va tadqiqotchilar uchun qanday imkoniyatlar qilinayotganligini ko‘rsatishdir. Asosiy vazifa saqlash, jamlash va o‘z holatini yo‘qotgan hujjatlarni qayta holatiga keltirish uchun qilinayotgan ishlarni yoritishdan iborat.

O‘zbekiston Milliy arxivining boshqa arxivlardan farqi shundaki, bunda saqlanayotgan hujjatlar O‘zbek xalqining tarixiga ta’luqli bo‘lgan o‘tmishdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlarini yoritib beruvchi yozma hujjatlar majmuidir.

Qaysi davrga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar o‘sha davrda qanaqa yozilgan bo‘lsa shunday saqlanadi.

Ma’lumki, arxiv hujjatlari – bu hujjatli o‘tmishdir.

O‘zbekiston Respublikasi “Arxiv ishi to‘g‘risidagi” Qonunida arxiv tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan; Arxiv – arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etuvchi muassasa”. Bu jamlash, hisobga olish, saqlash foydalanish arxivning to‘rtta ustuni qilib belgilangan[1].

Shuni alohida aytish kerakki, arxivlar manbalar to‘plami sifatida ilmiy izlanish maqsadlari, davlat boshqaruvining, alohida shaxslarning, jamoat tashkilotlarining ehtiyojlariga xizmat qiladi. Arxiv hujjatlaridan foydalanish – bu tarixchi izlanishining

poydevori hisoblanadi. Mustaqil O‘zbekistonda tarix fanining rivojlanishida arxiv ma’lumotlari katta ahamiyatga egadir[2].

Shuningdek bugungi kunda ko‘plab davlatlarda arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, tartibga solish hamda ulardan foydalanish uchun sharoitlar yaratib berayotgan arxiv muassasalari faoliyat yuritib keladi. Ularda qadimiy davrlardan boshlab to hozirgi zamonga qadar millionlab hujjatlar to‘planib, minglab arxiv fondlariga jamlangan. Shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakatlarning yirik arxivlari qatorida O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan Markaziy davlat arxivlari ham qimmatli tarixiy hujjatlarga boy bo‘lgan muassasalar sifatida e’tirof qilinadi.

Respublikamizda mustaqillik yillarida arxiv muassasalari va arxiv ishi sohasiga alohida e’tibor berilib, mazkur jarayonda arxivlar faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar bilan ishslashning tartib-qoidalari ishlab chiqilib, arxiv texnologiyalari takomillashtirildi. O‘zbekistonning Davlat arxivlari hamda xorijiy mamlakatlarda ish olib borayotgan arxivlar o‘rtasida hamkorlik aloqalari o‘rnatishda o‘zaro manfaatli shartnomalar tuzishga muvaffaq bo‘lindi.

Hozirgi kunda respublikamizda 103 ta davlat arxivi bo‘lib, eng yirik davlat arxivlaridan biri bu O‘zbekiston Milliy arxividir. Bu arxiv 1958-yilda tashkil etilgan. Uning binosi maxsus loyiha asosida 1964-yilda qurilgan va 1-avgustdan ishga tushurilgan. Bizning o‘lkamizda arxivlar juda qadim zamonlarda vujudga kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi o‘zbek xalqining qo‘lyozma hujjatlari saqlanadigan eng katta, eng boy arxiv xazinadir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondida yurtimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga taalluqli qariyb 1,8 milliondan ortiq hujjatlarni saqlanib kelinmoqda. Bulardan alohida qimmatli hujjatlar soni 500000 yig‘majilddan iboratdir[3].

O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlar tasnifi uchta tarixiy davrga tegishli hujjatlar saqlanadi.

Ular:

- 1) Tarixiy davr (IX-asrdan 1917-yilgacha bo‘lgan davr hujjatlari). Bu fondlarga «I» indeeksi berilgan, ma’nosи “Исторический” (Tarixiy) jami 910 dan ortiq fondi bor.
- 2) Inqilobgacha bo‘lgan hujjatlar (1918-yildan 1990-yilgacha). «R» indeeksi berilgan, jami fondi 1900 dan ortiq.

3) Mustaqillik davri hujjatlari 1990-yildan to hozirgi kungacha «М» indeeksi berilgan, jami fondi 65 dan ortiq[4].

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondini saqllovchi muassasa sifatida 2003-yil 22 yanvarda davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Bu yerda saqlanayotgan hujjatlar tarixiylik bo'yicha vaqfnomalar bo'lib, hujjatlar IX asrdan to hozirgi kungacha saqlanmoqda. Tarixiy davr hujjatlari milodiy 898-1917 yillar inqilobigacha bo'lgan davnri o'z ichiga oladi. Bunga misol qilib Vaqf hujjatlarida bayon etilgan ma'lumotlarning eng qadimiysi IX asrga oidligini bilib olishimiz mumkin[5].

So'ngi davrlarga kelib arxiv hujjatlarining ahamiyatchilik jihatni ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu faqatgina O'zbekistonda emas balki butun dunyo mamlakatlarida bo'lib turgan hodisa hisoblanadi. Buning asosiy sababi esa aholining axborotga bo'lgan talabining oshib borayotganidir. Shu sababdan jahon mamlakatlarida ham arxiv hujjatlarining saqlanishi ulardan samarali foydalanishni tashkil etish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan Markaziy arxivlar qimmatli arxiv hujjatlariga boy. Mana shularni hisobga olgan holda arxiv hujjatlari doimiy nazoratda saqlanishini taqozo etadi. Shuningdek boy tariximizni o'rganishimizda arxiv hujjatlarining o'rni beqiyosdir. O'zbek xalqining asl tarixini tiklashda arxiv hujjatlarining ahamiyati katta hisoblanadi. Arxiv hujjatlari tirik o'tmish va xalqimizning tarixi bitilgan xotirasidir.

Shuningdek arxivda saqlanayotgan hujjatlarning ko'proqi raqamlashtirilsa tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlardan yaratilardi, hujjatlarining asl nusxasi yanada ko'proq saqlanishi imkonini berardi. Saqlanayotgan hujjatlari qadimiyligi bilan emas, o'sha davrdagi voqealarning noyobliligi bilan qimmatli hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30 oktabrdagi "Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
2. Alimov I.A. Arxivshunoslik. -T.: 2005.
3. Is'hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. -T.: 2017.
4. Boboqulov B. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti. -T.: "Sano-standart", 2011
5. Arxivshunoslik. Darslik. O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. – T.: "Turon-Iqbol", 2018.